



 **KDB Bank Uzbekistan** | Reliable Partner
For Your Future

2026–2030-yillarga mo‘ljallangan uzoq muddatli rivojlanish strategiyasi

2026-yil aprel

Uzoq muddatli rivojlanish strategiyasining ahamiyati

Mazkur uzoq muddatli rivojlanish strategiyasi, “KDB Bank O‘zbekiston” AJ (keyingi o‘rinlarda “Bank” yoki “KDB Uz” deb yuritiladi) Boshqaruvi tashabbusi bilan, 2026–2030–yillar uchun Bankning rivojlanish yo‘nalishini belgilash maqsadida ishlab chiqildi.

Ushbu strategiya bugungi kunda jadal ravishda o‘zgarib borayotgan ichki va tashqi, jumladan global muhitga Bankning faol moslashishini, hamda uning mustahkam o‘sinh, tavakkalchilikni kuchli boshqarish va mijozlar bilan uzoq muddatli hamkorlik o‘rnatish bo‘yicha tan olingan, xorijiy sarmoya asosida tashkil etilgan, **MDH mintaqasidagi yetakchi korporativ va investitsiya bankiga** aylanishini ta‘minlaydi.

Bundan tashqari, strategiya Bankning daromad manbalarini diversifikatsiya qilishni ta‘minlash hamda kuchayib borayotgan raqobat va o‘zgaruvchan bozor sharoitlari fonida uning moliyalashtirish bazasi barqarorligini mustahkamlashni nazarda tutadi.

Shuningdek, ushbu strategiya kapital va resurslarni samarali taqsimlash uchun tizimli yondashuvni ta‘minlab, barqaror o‘sinhni qo‘llab-quvvatlaydi, hamda Bankning umumiy moliyaviy barqarorligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Mundarija

| | |
|--|----|
| I. Bank to'g'risida umumiy ma'lumot..... | 4 |
| ▷ Rivojlanishning asosiy bosqichlari | 5 |
| ▷ Bank profili..... | 6 |
| ▷ So'nggi 5 yildagi moliyaviy natijalar..... | 7 |
| ▷ So'nggi 5 yildagi asosiy yutuqlar | 8 |
| II. Strategik asos | 9 |
| ▷ Makroiqtisodiy va moliyaviy muhit..... | 10 |
| ▷ Bank sektori sharhi | 12 |
| ▷ SWOT tahlili – Bankning pozitsiyasi..... | 13 |
| III. 2030-yilgacha rivojlanish strategiyasi..... | 14 |
| ▷ Istiqbol, maqsadlar va strategik ustuvor yo'nalishlar | 15 |
| ▷ Operatsion aktivlarning o'sishi va diversifikatsiyasi | 16 |
| ▷ Moliyalashtirish bazasining o'sishi va diversifikatsiyasi | 17 |
| ▷ Daromad manbalarini takomillashtirish..... | 18 |
| ▷ Risklarni boshqarish, komplayens va kiberxavfsizlikni kuchaytirish | 19 |

I. Bank to'g'risida umumiy ma'lumot

- ▷ Rivojlanishning asosiy bosqichlari
- ▷ Bank profili
- ▷ So'nggi 5 yildagi moliyaviy natijalar
- ▷ So'nggi 5 yildagi asosiy yutuqlar



Rivojlanishning asosiy bosqichlari

1997

Bankning tashkil etilishi

Daewoo guruhining xalqaro kengayishi doirasida UzDeu Bank sifatida tashkil etildi.

2013

Kengayishi

RBS NB O'zbekistonni qo'shib oldi va KDB Bank O'zbekiston deb qayta nomlandi.

2006

KDB tomonidan sotib olinishi

KDB Bank (Koreya) tomonidan sotib olinib, UzKDB Bank deb qayta nomlandi.

2025

Rekord darajadagi natija

Jami aktivlar miqdori 1 mlrd AQSh dollaridan oshdi, soliqdan oldingi sof foyda 63 mln AQSh dollarga yetdi.

Bank profili



Korporativ yo'nalishdagi bank

KDB Uz xalqaro standartlarga muvofiq yuqori sifatli moliyaviy xizmatlarni taqdim etadi, hamda asosiy e'tiborini korporativ mijozlarga qaratadi.



Strategik aksiyador

Korporativ va investitsiya yo'nalishdagi bank sifatida katta tajribaga ega bo'lgan, Janubiy Koreya davlati egaligidagi KDB Bank (barqaror prognoz bilan AA reytingli) doimiy ravishda KDB Uz uchun strategik boshqaruv va moliyaviy qo'llab-quvvatlashni amalga oshirib kelmoqda.



Kredit reytinglari

2025-yil so'nggida S&P Global KDB Uzning mustaqil kredit reytingini "BB" darajasida barqaror prognoz (O'zbekistonning xorijiy valyutadagi uzoq muddatli suveren kredit reytingi darajasi doirasida) deb belgiladi. Hisobotda, shuningdek, Bankning strategik aksiyadori tomonidan potensial qo'llab-quvvatlash ehtimoli balandligi hisobiga Bankning reytingi uch pog'onagacha yuqori bo'lishi mumkinligi qayd etildi.



Bank filiallari va xodimlari

Bankning bosh ofisi va Oybek filiali Toshkent shahrida joylashgan bo'lib, uning mamlakat bo'ylab hududiy filiallari mavjud emas. Bankda taxminan 250 nafar xodim faoliyat yuritadi.



Aksiyadorlik tuzilmasi



KDB
(Koreya)

86.32%



O'zbekiston Respublikasi
Milliy banki (NBU)




10.31%



Turon Bank
(O'zbekiston)

3.37%

So'nggi 5 yildagi moliyaviy natijalar



So'nggi 5 yildagi asosiy yutuqlar

1) "On-lending" va savdoni moliyalashtirish kreditlarining yo'lga qo'yilishi

Bank mamlakatda kichik biznesni rivojlantirish va tashqi savdo operatsiyalarini qo'llab-quvvatlash maqsadida mahalliy banklar uchun "on-lending" hamda savdoni moliyalashtirish kreditlarini joriy etdi.

2) Davlat egaligidagi korxonalariga kredit ajratishning sezilarli darajada kengayishi

Kredit portfelining barqaror o'sishi va diversifikatsiyasini ta'minlash maqsadida Bank yetakchi davlat egaligidagi korxonalariga to'g'ridan-to'g'ri kreditlash hajmini sezilarli darajada oshirdi.

3) Xalqaro sindikatlashgan kreditlarda ishtirok

2024-yildan boshlab Bank mahalliy korxonalarni moliyalashtirish uchun ikkita xalqaro sindikatlashgan kreditda ishtirok etdi. Jumladan, 2025-yilda amalga oshirilgan bitimda yetakchi tashkilotchi bank sifatida e'tirof etildi.

4) "Onshore" hisobvaraqlarni jalb qilish orqali kross-sotuvni rivojlantirish

Depozit bazasini kengaytirish va foizsiz daromadlarni diversifikatsiya qilish maqsadida Bank xorijiy investitsiya va qarz mablag'lari hisobidan moliyalashtiriladigan yirik loyihalarga mas'ul kompaniyalarning "onshore" (mamlakat ichkarisidagi) hisobvaraqlarini jalb etishga jiddiy e'tibor qaratdi.

5) Uzoq muddatli qarz mablag'lari orqali barqaror moliyalashtirishni ta'minlash

Bank kredit portfeli o'sishini qo'llab-quvvatlash maqsadida KDB Bank va KDB guruhining boshqa a'zolaridan uzoq muddatli qarz mablag'larini jalb qilish orqali barqaror moliyalashtirish bazasini mustahkamladi.

6) Raqamli platformalarni rivojlantirish

Bank xizmatlarini raqamlashtirishga bo'lgan talabga muvofiq, Bank depozitlarni jalb qilish, hamda kross-sotuv imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida internet va mobil bank xizmatlarini takomillashtirdi.


II. Strategik asos

- ▷ Makroiqtisodiy va moliyaviy muhit
- ▷ Bank sektori sharhi
- ▷ SWOT tahlili – Bankning pozitsiyasi



Makroiqtisodiy va moliyaviy muhit

O'zbekistonning asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari




“O'zbekiston – 2030” strategiyasining asosiy yo'nalishlari

- 2030-yilga borib YaIMni 240 mlrd AQSh dollariga yetkazish maqsad qilingan bo'lib, bunga yillik inflyatsiya darajasini 5–6% atrofida ushlab turish, fiskal barqarorlikni ta'minlash, mamlakatning investitsiyaviy jozibadorligini oshirish, ichki xomashyo resurslaridan samarali foydalanish hamda yuqori texnologiyalarga asoslangan sanoat va xizmatlar sohasini rivojlantirish orqali erishish rejalashtirilgan.
- “Yashil iqtisodiyot”ga o'tish, mamlakatni mintaqaviy “IT HUB”ga aylantirish, **bank sektorida raqobatni kuchaytirish**, tadbirkorlik faoliyati uchun eng qulay shart-sharoitlarni yaratish, hamda hududlarni kompleks rivojlantirishni ta'minlash ko'zda tutilgan.



Makroiqtisodiy va moliyaviy muhit




O'zbek banklari va korxonalari so'nggi yillarda xalqaro moliya bozorlariga kengroq kirish imkoniyatiga ega bo'ldi.

Natijada:


- Mahalliy banklarning moliyalashtirish bazasi yanada mustahkam va diversifikatsiyalashgan holga keldi;
- Moliyaviy jihatdan barqaror korxonalar tomonidan yirik hajmdagi qarz mablag'lariga bo'lgan talab mahalliy bank sektorida qisqardi.

Bank sektori sharhi

1 2021–2025–yillarda O‘zbekiston bank sektoridagi o‘shish tendensiyalari



2 2021–2025–yillarda bank sektorida amalga oshirilgan islohotlarning asosiy natijalari



3 O‘zbekiston bank sektori istiqbollari, 2026–2030

- Davlat banklaridagi davlat ulushini strategik xorijiy investorlarga sotish yo‘li bilan xususiy lashtirish va ularning sonini 2025–yildagi 9 tadan 2030–yilga kelib 4 tagacha qisqartirish;
- Ichki bozorda uzoq muddatli moliyalashtirish manbalarining cheklanganligi sababli banklar tomonidan tashqi qarz mablag‘larini jalb etishni faol davom ettirish;
- Islomiy moliya mahsulotlarini joriy etish;
- Kiberxavfsizlik va iqlim bilan bog‘liq risklarni boshqarish tizimlarini takomillashtirish.

SWOT tahlili – Bankning pozitsiyasi



S

Kuchli jihatlar

- Strategik aksiyador (KDB Bank) hisobiga Bankka bo'lgan kuchli xalqaro ishonch, hamda korporativ va investitsiya yo'nalishidagi bank faoliyati bo'yicha yuqori malakaning mavjudligi
- Depozitlar, KDB Bankdan jalb qilingan qarz mablag'lari va kapital hisobiga shakllangan yetarli va ishonchli moliyalashtirish bazasining mavjudligi
- Kredit portfeli o'sishida muhim ahamiyat kasb etadigan kapitalning yuqori darajada yetarliligi

W

Zaif jihatlar

- Faoliyat ko'lami va hududiy ishtirokning cheklanganligi
- Foizsiz daromad manbalarining kuchsizligi
- Operatsion aktivlar va uzoq muddatli moliyalashtirish manbalarining yetarli darajada diversifikatsiyalanmaganligi

O

Imkoniyatlar

- Davlat korxonalarini va banklari tomonidan moliyalashtirishga bo'lgan yuqori talab
- Bank sektorida davom etayotgan xususiyashtirish islohotlari natijasida imtiyozli kreditlash hajmining qisqarishi
- O'zbekistonda kapital bozorining rivojlanish istiqbollari

T

Tahdidlar

- O'zbek korxonalarini uchun xalqaro moliya bozorlariga kirish imkoniyatlarining ortishi, hamda xorijiy investorlarning bank sektoriga kirib kelishi natijasida raqobatning kuchayishi
- Nazorat va tartibga solish talablarining kuchaytirilishi
- Bank sektorida raqamli xizmatlarning jadal rivojlanishi va foizsiz daromadlar miqdorining qisqarishi


III. 2030-yilgacha rivojlanish strategiyasi

- ▷ Istiqbol, maqsadlar va strategik ustuvor yoʻnalishlar
- ▷ Operatsion aktivlarning oʻsishi va diversifikatsiyasi
- ▷ Moliyalashtirish bazasining oʻsishi va diversifikatsiyasi
- ▷ Daromad manbalarini takomillashtirish
- ▷ Risklarni boshqarish, komplayens va kiberxavfsizlikni kuchaytirish



Istiqbol, maqsadlar va strategik ustuvor yo'nalishlar

1 2026–2030-yillar uchun asosiy moliyaviy ko'rsatkichlar



Yuqorida 2025–2030 yillar davomida barqaror o'sishi aks ettirilgan bo'lib, jami aktivlar 1 088 mln AQSh dollaridan 1 594 mln AQSh dollarigacha, operatsion aktivlar (kreditlar va qarz qimmatli qog'ozlariga investitsiyalar) 357 mln AQSh dollaridan 795 mln AQSh dollarigacha, soliqqa qadar sof daromad esa 62,9 mln AQSh dollaridan 81,7 mln AQSh dollarigacha oshishi prognoz qilinmoqda. Bu esa operatsiyalar hajmining kengayishi va rentabellikning yaxshilanishini aks ettiradi.

2 Istiqbol

MDH mintaqasida yetakchi korporativ va investitsiya bankiga aylanish


3 Maqsadlar

Mustahkam o'sish, tavakkalchilikni kuchli boshqarish va mijozlar bilan uzoq muddatli hamkorlik o'rnatish bo'yicha tan olingan, xorijiy sarmoya asosida tashkil etilgan, MDH mintaqasidagi yetakchi korporativ va investitsiya bankiga aylanish

4 Strategik rivojlanish yo'nalishlari

- Operatsion aktivlarning o'sishi va diversifikatsiyasi
- Moliyalashtirish bazasining o'sishi va diversifikatsiyasi
- Daromad manbalarini takomillashtirish
- Risklarni boshqarish, komplayens va kiberxavfsizlikni kuchaytirish

Operatsion aktivlarning o'sishi va diversifikatsiyasi



Besh yillik davr mobaynida Bankning operatsion aktivlari umumiy 122,8% ga o'sishi, jumladan, yillik tortilgan o'sish sur'ati (CAGR) 17,4% ni tashkil etishi prognoz qilinmoqda.


Asosiy strategik ustuvor yo'nalishlar

- 01** Jami aktivlar tarkibida operatsion aktivlar ulushini oshirish
33% (2025) → 45% (2028) → 50% (2030)
Yuqori daromadlilikka ega aktivlar hisobiga foyda shakllanish modelining barqarorligini mustahkamlash maqsadida Bank operatsion aktivlar hajmini va ularning jami aktivlardagi ulushini oshirishni rejalashtirmoqda.
- 02** Korporativ qarz oluvchilar sonini oshirish
40 (2025) → 55 (2028) → 70 (2030)
Kredit portfelini yanada diversifikatsiya qilish maqsadida Bank korporativ qarz oluvchilar (shu jumladan, banklar) sonini oshirishni rejalashtirmoqda. Shuningdek, yirik davlat korxonalarini bilan bir qatorda moliyaviy jihatdan barqaror o'rta va yirik xususiy kompaniyalarni jalb etishga alohida e'tibor qaratiladi.
- 03** Milliy valyutadagi operatsion aktivlar hajmini oshirish
111 mln AQSh dollari (2025) → 276 mln AQSh dollari (2028) → 395 mln AQSh dollari (2030)
Kapitaldan foydalanish samaradorligini oshirish maqsadida Bank kreditlar ajratish va qarz qimmatli qog'ozlariga investitsiyalar kiritish orqali milliy valyutadagi operatsion aktivlar hajmini oshirishni rejalashtirmoqda. Bundan tashqari, davlat qimmatli qog'ozlariga investitsiyalar bilan bir qatorda, mahalliy banklar va korxonalar tomonidan chiqarilgan milliy valyutadagi qarz qimmatli qog'ozlariga investitsiyalar kiritish ham ko'zda tutilgan.

Moliyalashtirish bazasining o'sishi va diversifikatsiyasi

Barqaror moliyalashtirishning o'sishi

(Birlik: AQSh dollari, mln)



Aktiv va majburiyatlarni boshqarishni takomillashtirish hamda moliyalashtirish xarajatlarini optimallashtirish

Muddatlar, valyutalar va foiz stavkalari profillarining mosligini ta'minlash, shuningdek likvidlik va bozor risklarini kamaytirish maqsadida Bank aktiv va majburiyatlarni boshqarish tizimini takomillashtiradi. Bu esa moliyalashtirish xarajatlarini optimallashtirish va sof foiz marjasini oshirish imkonini beradi.

Asosiy strategik ustuvor yo'nalishlar

01

Xorijiy moliya institutlaridan uzoq muddatli qarz mablag'larini jalb qilishni oshirish

223 mln AQSh dollari (2025) → 250 mln AQSh dollari (2028) → 315 mln AQSh dollari (2030)

Bank uzoq muddatli xorijiy moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilishga intiladi. Shu bilan birga, KDB guruhi asosiy hamkor sifatida qaraladi, hamda boshqa manbalardan zarur hajmdagi uzoq muddatli moliyalashtirish jalb etilmagan taqdirda tayanch qo'llab-quvvatlash manbai sifatida xizmat qiladi.

02

Xorijiy valyutadagi uzoq muddatli mijoz depozitlarini jalb etish

0 (2025) → 50 mln AQSh dollari (2028) → 65 mln AQSh dollari (2030)

Bozorda uzoq muddatli korporativ depozitlar cheklangan bo'lishiga qaramay, Bank bosqichma-bosqich xorijiy valyutadagi muddatli depozitlar miqdorini oshirishni rejalashtirmoqda. Ushbu maqsadga erishish uchun Bank korporativ mijozlarga raqobatbardosh foiz stavkalari, moslashtirilgan depozit mahsulotlari, hamda yuqori darajadagi mijozlar bilan ishlash tizimini taklif qilgadi.


03

Joriy va qisqa muddatli depozitlar hamda pul bozorida olinadigan qarz mablag'lari hajmini oshirish

658 mln AQSh dollari (2025) → 707 mln AQSh dollari (2028) → 769 mln AQSh dollari (2030)

Bank joriy va qisqa muddatli depozitlar hajmini oshirish maqsadida marketing faoliyatini kuchaytiradi, jumladan, "onshore" va asosiy hisobvaraqlarni jalb etish, hamda raqamli kanallar orqali mahsulot takliflarini kengaytirish faollashtiriladi. Likvidlikni boshqarish maqsadida, zarur hollarda, Bank xorijiy valyutada pul bozorida qarz mablag'larini jalb qilishni rejalashtirgan.

Daromad manbalarini takomillashtirish



Jami operatsion daromad tarkibida sof foizsiz daromad ulushining bosqichma-bosqich oshirilishi maqsad qilingan.

20.3% (2025) → 22.2% (2028) → 23.4% (2030)

Asosiy strategik ustuvor yo'nalishlar

01

Foizli daromad keltiruvchi mahsulotlarni rivojlantirish va takomillashtirish

Strategik aksiyador (KDB Bank)ning tajribasiga tayangan holda, hamda bank sektoridagi talabni inobatga olib, Bank foizli daromad keltiruvchi yangi mahsulotlar ishlab chiqish va mavjudlarini takomillashtirishga e'tibor qaratadi. Jumladan, loyihaviy moliyalashtirish (Project Finance), sindikatlashgan kreditlar, moliyaviy lizing hamda korporativ obligatsiyalarga investitsiyalar kabi yo'nalishlar rivojlantiriladi.


02

Foizsiz daromad keltiruvchi mahsulotlarni rivojlantirish va kengaytirish

Bank tranzaksion bank xizmatlari va karta operatsiyalarini raqamlashtirishni yanada rivojlantiradi, mijozlarga xorijiy valyuta bilan bog'liq keng turdagi xizmatlarni taqdim etadi, hamda Islomiy moliya, faktoring va eksport akkreditivlarini diskontlash kabi mahsulotlarni joriy etadi. Bundan tashqari, KDB guruhining keng va ishonchli tarmog'idan foydalanish orqali Bank akkreditivlarni tasdiqlash va bank kafolatlari bo'yicha faoliyatini kengaytirishni rejalashtirmoqda.

Riszlarni boshqarish, komplayens va kiberxavfsizlikni kuchaytirish

01 Kredit riski va kredit konsentratsiyasi riskini kamaytirish



Amaldagi sharoitda muammoli kreditlar mavjud emasligiga qaramay, Bank kelgusi besh yil davomida kredit portfeli hajmining kutilayotgan o'sishi fonida kredit riskini kamaytirish maqsadida kreditlarni ko'rib chiqish, monitoring qilish hamda muammoli kreditlarni boshqarish tizimlarini yanada takomillashtirishni rejalashtirmoqda.

Kredit konsentratsiyasi riskini boshqarish maqsadida Bank o'zining Risk appetit bayonoti doirasida yirik tavakkalchiliklar bo'yicha limitini bosqichma-bosqich kamaytiradi. Bundan tashqari, kelgusi yillarda kredit portfeli dollarlashuv darajasini izchil ravishda pasaytirish ko'zda tutilgan.

02 Iqlim bilan bog'liq risklarni boshqarishni joriy etish

Amaldagi tartibga solish talablari rivojlanib borayotganini inobatga olgan holda, Bank qarz oluvchilarning kredit risk profiliga iqlim bilan bog'liq risklarning ta'sirini baholash metodologiyalarini ishlab chiqadi va joriy etadi, hamda ushbu yondashuvlarni kelgusi yillarda kredit riskini boshqarish tizimiga integratsiya qiladi.

03 Komplayens va operatsion risklarni boshqarishni kuchaytirish

Kuchayib borayotgan nazorat talablari munosabati bilan Bank risklarni aniqlash, monitoring qilish va nazorat qilish jarayonlarini yanada takomillashtiradi, shuningdek barcha biznes yo'nalishlarida kuchli komplayens va operatsion risk madaniyatini shakllantiradi. Mazkur chora-tadbirlar barqaror faoliyatni ta'minlashga, Bank obro'-e'tiborini himoya qilishga hamda uzoq muddatli strategik maqsadlarga muvofiqlikni ta'minlashga xizmat qiladi.

04 Kiberxavfsizlikni kuchaytirish

Bank muhim tizimlar va mijozlar ma'lumotlarini rivojlanib borayotgan kibertahdidlardan himoya qilish maqsadida kiberxavfsizlik tizimini yanada mustahkamlaydi, shu orqali operatsion barqarorlik, yaxlitlik va uzluksizlikni ta'minlaydi.

Bog'lanish uchun ma'lumotlar

■ MANZIL

O'zbekiston Respublikasi
Toshkent shahri 100047
Buxoro ko'chasi, 3-uy

■ TELEFON

Tel: +998 78 120 80 00 (ichki: 930)

■ ELEKTRON POCHTA VA VEB-SAHIFA

info@kdb.uz
www.kdb.uz

■ ISH VAQTI

Dushanba – Juma: 09:00 – 18:00

*Mazkur strategiya "KDB Bank O'zbekiston" AJning Rejalashtirish boshqarmasi tomonidan tayyorlandi.
Qo'shimcha ma'lumot olish uchun yuqorida ko'rsatilgan aloqa manzillari orqali murojaat qilishingiz mumkin.*

